

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

JISMONIY TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI KAFEDRASI

JISMONIY MADANIYAT FAKULTETINING

**“Sportchi va sogʻlom shaxs tarbiyasida davolash jismoniy tarbiyasining
ahamiyati” mavzusida yozgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: 5141900-jismoniy tarbiya
va jismoniy
madaniyat taʼlim yoʻnalishi
Bitiruvchi 4-kurs talabasi
Qurbonov Murodullo
Musurmonovich Ilmiy rahbari:
Xasanov I. T

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan oʻtdi.
sonli bayonnomasi “ ____ ” _____ 2013 yil.

TERMIZ- 2013 y.

MUNDARIJA

KIRISH	3
1 BOB. DAVOLASH JISMONIY TARBIYA VOSITA VA SHAKLLARILARI.	
1.1. Gimnastika mashqlari.....	6
1.2. Mushaklarning qisqarish harakteri.....	6
1.3. Davolash gimnastikasi mashg`uloti va rejim turlari	13
1.4 Davolash jismoniy tarbiya shakllari.....	16
2 BOB. JAROHATLANISH TUG`RISIDA TUSHUNCHA, SINISHNING TURLARI VA FUNKSIONAL DAVOLASH DAVRLARI.	
2.1 Jarohatlanish to`g`risida tushuncha.....	21
2.2 Shikastlanish harakterlari va ularga tasnif.....	22
2.3 Davolash jismoniy tarbiyasi mashg`ulotlarining davrlarga bo`linishi.....	25
3. BOB. NYeRV TIZIMIDA VA BOLALARDA TAYaNCh-HARAKAT APPARATINING NUQSONIDA DAVOLASH JISMONIY TARBIYASINING USLUBLARI	
3.1 Nerv tizimi kasalligining harakteristikasi.....	28
3.2 Nevritda davolash jismoniy tarbiya uslublari.....	29
3.3 Bolalarda tayanch-harakat apparatining nuqsonida davolash jismoniy tarbiyasi.....	36
XULOSA.....	42
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	44

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Shifobaxsh maksadida qo'llaniladigan jismoniy mashqlar va tabiatning tabiiy vositalari-Davolash jismoniy tarbiyasi ning asosiy vositalaridir.

Davolash jismoniy tarbiyasida qo'llaniladigan jismoniy mashqlar gimnastika, sport va uyinlardan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi aholisining sog'ligini saqlash, mustahkamlash, inson umrini uzaytirish va kasalliklarning oldini olishga qaratilgan barcha shart-sharoitlar yaratilgan va yaratilmoqda. buning uchun esa sportchini sog'lom etib tarbiyalash uchun mamlakatimiz aholisini sog'lom turmush tarziga o'rgatish va davolash jismoniy tarbiyasi davrning talablaridan biri bo'lib kelmoqda.

Ma'lumki, jismoniy tarbiya va sport bilan Shug'ullanish odam organizmini har tomonlama jismonan rivojlanishi va mustahkamlanishi, fiziologik funktsiyalarning takomillashtirishi va sog'lomlashtirishga olib keladi.

Shug'ullanuvchilarning yoshi, jinsi va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda to'g'ri uyushtirilgan jismoniy tarbiya mashqlari davolash jismoniy tarbiyasi yuqori samara beradi. Aks holda ular jismoniy tarbiyaning sog'lomlashtirish vazifasini hal qilish borasidagi ahamiyatini yoqotadi.

Jismoniy tarbiya va sport bilan Shug'ullanuvchilarni maqsadga muvofiq ravishda o'z vazifalarini samarali bajarishlarini imkonini beradi. Davolash jismoniy tarbiyasiga oid bilimlarni samarali amalda joriy etish tufayli zamonaviy sportning gimnastika turlarida mashg'ulotlarni olib borish imkoniyatlari yaratildi. Davolash jismoniy tarbiyasining barcha sohalari keng ravishda rivojlanib kelmoqda. Mamlakatimiz aholisi va sportchilarning salomatligi va funktsional holatiini kuzatish, ularning tayyorgarlik darajasini aniqlashda yangi zamonaviy tibbiy tekshirish usullari joriy qilindi. Jismoniy tarbiya va sport bilan Shug'ullanuvchilarni jismoniy ish qobiliyatini va chiniqqanligini aniqlashda yangi funktsional sinamalar qo'llanilmoqda.

Zamonaviy sportga ta'luqli jiddiy va shiddatli mashg'ulotlar, musobaqalardan keyin sportchilarning ish qobiliyatini oshirish va organizm toliqib

qolishini oldini olishda, ularni qayta tiklash vositalarini qo'llash sport mashg'ulotlarini oqilona nazorat qilishga yo'naltirilganligining biri hisoblanadi.

Keyingi vaqtlarda jismoniy tarbiya va sport bilan Shug'ullanuvchilarning sog'ligida kuzatilgan nohush holatlar, kasalliklar sabablarini, ularning oldini olish va davolash masalalarini o'z zimmasiga olgan sport tibbiyoti fanining yangi bir sohasi rivoj topmoqda. Bunday o'zgarishlar jismoniy zo'riqish ko'chayganda va jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini oqilona toshqil qilinmaganda, yoki kasalliklarga moyil bo'lgan sportchilarning turli mashg'ulotlarda ishtirok etganlarida yuz berishi mumkin.

Mavzuning maqsadi. O'zbekistonda davolash jismoniy tarbiyasi va sportni tibbiy nazorat qilish maxsus tibbiy-jismoniy tarbiya xizmatlari (kabinetlar, dispanserlar) va sog'liqni saqlash organlarining davolash profilaktik muassasalari orqali territorial printsipda amalga oshiriladi. Sportda va davolash jismoniy tarbiyasi jarayonida tibbiy kuzatish, aholini davolash-profilaktik xizmatining asosiy qismi bo'libgina qolmay, insonning davolash jismoniy tarbiyasi tizimidagi ajralmas bo'lagidir.

Jismoniy tarbiya va sportni har tomonlama rivojlanishi uchun insonning barkamol rivojlanishi, mamlakatimiz aholisining sog'lig'ini saqlash va uni mustahkamlash, Vatan himoyasida va mehnatda yuqori jismoniy tayyorgarligini ta'minlashdir.

. Sportchilarning sog'ligi va funktsional holatini kuzatish va aniqlashda yangi eksperimental tekshirish metodlar joriy qilindi. Sportchilarni jismoniy qobiliyatini va chiniqqanligini aniqlashda yangi funktsional sinovlar ko'lamini boyitildi.

Respublikamizda ommaviy jismoniy tarbiya va sportning yanada keng rivojlanishi sportchilarni nazorat qilish vazifalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Zamonaviy trener va jismoniy tarbiya mutaxasisi anatomiya, fiziologiya, gigiena va bioximiya fanlariga asoslanib, sportchilarni nazoratning qilish, nazariy va amaliy bilimlar bilan qurollangan va sport mashg'ulotlarning uyushtirilishida

jismoniy mashqlarni sogʻlomashtiruvchi omillardan toʻgʻri foydalana olishlari lozim.

Oxirgi yillarda davolash jismoniy tarbiyasida tayanch-harakat apparatining va nafas olish tizimlarining funktsiyalarini qayta tiklashda ritmoplastik musiqa joʻrligida raks harakatlarini bajarish keng qoʻllanilmokda.

Gimnastika mashqlari bir necha belgilar asosida klassifikatsiyalanadi.

Anatomik belgisi boʻyicha mayda (koʻl kafti, oyoq-panja, yuz), oʻrta (buyin bilan, boldir, son), katta (qoʻl va oyoqlar, tana) mushak guruhlari ajratiladi.

Davolash jismoniy tarbiyasini oʻzlashtirish jarayonida talabalarning yetuk mutaxassis boʻlishlari inobatga olingan. Shu boisdan jismoniy rivojlanishni va odam organizmining funktsional holatini aniqlash, jismoniy ish qobiliyatini testlar yordamida aniqlash va baholash, davolash jismoniy tarbiyasi jarayonida tibbiy-pedagogik kuzatuvlarni oʻtkazish va sportda shikastlanishlarining oldini olish, sport patologiyasi kabi nazariy va amaliy bilimlar bilan qurollantirishga alohida ahamiyat berish .

1 BOB. DAVOLASH JISMONIY TARBIYA VOSITALARI VA SHAKLLARI.

1.1. Gimnastika mashqlari.

Gimnastika mashqlari nafaqat organizmga, balki uning har xil tizimlariga butunlay, shu bilan birga, ayrim mushaklar guruxlariga, bugʻinlarga taʼsir kursatib, bir necha harakat, sifatlarini-kuch, tezkorlik, koordinatsiyani (harakatlanishning muvofikligini) tiklaydi va rivojlantiradi. Shu bois bular umumrivojlantiruvchi va maxsus mashqlarga bulinadi. *Umumrivojlantiruvchi mashqlar* organizmni sogʻlomashtirishga

va sog`ligini mustaxkamlashga karatilgan bo`ladi. *Maxsus mashqlar* kasalga chalingan tizimni yoki a`zolarining davolanishiga yoki tiklanishiga karatilgan bo`ladi.

Oxirgi yillarda DAVOLASH JISMONIY TARBIYada tayanch-harakat apparatining va nafas olish tizimlarining funktsiyalarini qayta tiklashda ritmoplastik musika jurligida raks harakatlarini bajarish keng qo`llanilmokda.

Gimnastika mashqlari bir necha belgilar asosida klassifikatsiyalanadi.

Anatomik belgisi bo`yicha mayda (qo`l kafti, oyoq-panja, yuz), o`rta (buyin bilan, boldir, son), katta (qo`l va oyoqlar, tana) mushak guruxlari ajratiladi.

1.2. Mushaklarning qisqarish harakteri.

Mushak qisqarish harakteriga qarab dinamik (izotonik) va statik (izometrik) jismoniy mashqlarga bulinadi.

Dinamik mashqlar. Dinamik harakatlar ko`proq tarkalgan. Bunda qisqarish va yozilish davri ketma-ket bajariladi, boshkacha aytganda, qo`l, oyoqlar yoki tana bug`imlari harakatlanadilar. Dinamik mashqqa qo`lni tirsak bug`imida yozish va bukish, qo`lni yelka va yon tomonga engashtirish kabi mashqlar misol bo`lishi mumkin.

Dinamik mashqlar aktiv va passiv bo`lishi mumkin: aktiv mashqlarni shugullanuvchi uzi bajaradi, passiv mashqlar metodist yordamida bajariladi, aktiv-passiv mashqlar shugullanuvchi uzi va metodist yordamida bajaradi.

Statik mashqlar. Bunday holatlarda mushaklar qisqarishda uz uzunligini uzgartirmasdan kuchlanishni (qisqarish kuvvatini) rivojlantiradi. Bunday mashqlar statik (izometrik) mashqlar deb nomlanadi.

Masalan, bemor yotgan holatda oyogini bukmasdan tepaga ko`tarib biroz ma`lum darajada ushlab tursa, bunda mashq boshida u dinamik tepaga ko`tarish, keyin esa statik ishni bajaradi. Boshkacha aytganda, sonni kiskartiruvchi mushaklari izometrik shaklda kiskaradi.

Ortopedik-travmatologik klinikalarida mushaklar kuchining va chidamliligining kamayishini oldini olishda gips bog`lamlar ostidagi mushaklarni tarang holatga keltirish keng qo`llaniladi.

Mushaklarni izometrik kuchlanishning ritmik shaklida (dakika davomida 30-50 marta mashqlarni bajarilishi) va uzok davomlida (mushaklarni 3 sekund va undan ham ko`proq vakt davomida) kuchlantirish bajariladi.

Kasallik va shikastlanishlarda 2-3 kundan keyin mushaklarning ritmik kiskarilishi mashqlari qo`llaniladi.

Avval bemor mustaqil metodik sifatida mashqlarni bajaradi, keyinchalik DGga kiritiladi. Bitta mashg`ulot davomida 10-12 marta mushaklarni optimal deb xisoblanadi.

Uzoq davomli mushaklarni izometrik kuchlanish kasallanishi va shikastlanishdan 3-5 sekund davomida, keyinchalik 5-7 sekundga oshirib boriladi.

Izometrik mashqlarni uzok vakt (7 sekunddan ko`proq) kuchlanilishi vegetativ sistemalarni keskin uzgartiradi: mushaklarning kuchlanishda nafas olishi kamayadi, mashqdan so`ng nafas olish va tomir urish kupayadi.

Mashqlarning harakteri. Harakter bo`yicha mashqlarni kuyidagi guruxlarga tuplash mumkin:

- a) nafas olish;
- b) koordinatsiyalash;
- v) mushaklarni bushashtirish;
- g) mushaklarni chuzish;
- d) muvozanat mashqlari;
- e) reflektor;
- j) koordinatsiya mashqlari;
- z) ritmoplastik;
- i) gimnastika asbob-uskunalarini qo`llash mashqlari;
- k) gimnastika tayokchalari, kotggoklar, gantellar, bulavalar va mexanoterapiya.

Nafas olish mashqlari toshqi nafas olish funktsiyasini oshirish va yaxshilash, nafas olish va nafas chikarish mushaklarini mustaxkamlash, o`pka asoratlarining oldini olish (o`pka yallig`lanishida plevralarning bir-biriga yopishib kolishi) va shu bilan mashq bajarilishi davrida va tugashida jismoniy tarbiyaning yuklanish kuchini pasaytirish (kamaytirish) maksadida qo`llaniladi. Qayta tiklanish davolashda dinamik, statik va drenajli nafas olish mashqlari qo`llaniladi.

Dinamik nafas olish mashqlari tana va qo`l-oyoqlar harakatlarida qo`shimcha nafas olish mushaklari yordamida amalga oshiriladi.

Statik nafas olish-mushaklarni qo`l-oyoqlar va tanani harakatlantirmasdan chukur va ritmik nafas olishdir. Bu gurux mashqlariga quyidagilar kiradi;

1. Nafas olish tipini uzgartiruvchi mashqlar:

- a) tulik nafas olish tipi;
- b) ko`krak nafas olish tipi;
- v) diafragmal nafas olish.

Tulik nafas olish eng fiziologik xisoblanadi, chunki bunda nafas olganda ko`krak ketma-ket vertikal yunalishda (diafragma pastga tushish tufayli) va qovurg`alarni yuqori oldinga va yon tomonlarga bir vaktida harakatlanishi natijasida kengayadi.

2. Ulchangan darajali karshilik kursatish mashqlari:

- a)instruktorning qo`llari karshiligini yengib diafragmal nafas olish;
- b)instruktorning qo`llari karshiligini yengib ko`krakning yuqori kismalari bilan nafas olish;
- v)instruktorning qo`llari karshiligini yengib ko`krak nafas pastki kismalari bilan nafas olish;
- g)instruktorning qo`llari karshiligini yengib yuqori va o`rta ko`krak kafasi bilan nafas olish;
- d) uyinchoklarni va koptoklarni puflash mashqlari.

Drenajli nafas mashqlari bronxlar va traxeyada tuplanib kolgan balgamlarni ajratilishini, yutal orqali tashqariga chikarilishini osonlashtiradi. Maxsus mashqlarni bajarilishda kasallangan joy traxeyani ikkita bronxlarga bulinish joydan (bifurkatsiya) yuqorirokda joylangan bo`lishi lozim. Bunday holatlarda kasallangan bronxlardan traxeyalarga balgam va yiringlarning okimiga qo`lay sharoitlar tugdiriladi.

Kasallangan joylarda ajratilgan mashqlar qo`llaniladi, statik drenaj mashqlarining bajarilishidan oldin bemor 5-10 dakika davomida drenajli holat deb ataluvchi holatda bo`lishi kerak (kelgusi mashg`ulotlarda bunday holatning davomiyligini uzaytirish kerak).

Masalan, yiringli kovagi (bushligi) ung o`pkaning oldingi segmentida joylashgan holda, bemor boshini orqaga egib o`tirishi lozim, orqa segmentining bushashtirilishida oldinga, yuqori segmentining drenaj kilinishida chapga karashi lozim. Nafas chikarish fazasida instruktor qo`l yordamida ko`krak kafasning yuqori qismining ung tarafini bosadi. Nafas chikarish paytida vibratsion massajni yoki yengil tarzda urib qo`yish (kokish) qo`llanilishi balgamning kuchishini ko`chaytiradi.

Ung o`pkaning o`rta bulimida drenaj utkazilishida bemor oyoqlarini bukib va boshini orqaga egib, orqasi bilan yotish yoki korni bilan va sog`lom yonboshi bilan yotishi lozim.

Ung o`pkaning pastki bulimining drenaji bemorning chap qo`lini ko`krak kafasiga kuyib chap bikinida yotgan holatda amalga oshiriladi, krovatning oyoq tomoni 40 sm ga ko`tarilgan bo`lishi kerak.

Sog`lom o`pkaga ajraladigan balgam tushmasligini oldini olish maksadida sog`lom o`pkani ham drenaj kilish bilan bu muolaja tugatiladi. Oddiy jismoniy mashqlar drenaj mashqlarning samaraligini yanada oshiradi. Bunda albatta bemorning vaziyatiga katta ahamiyat beriladi.

Masalan, o`pkaning yuqori kismilarida yiringli jarayoni joylashganda bemor o`tirgan yoki tik turgan holatda mashqlar bajarilishida balgamlar kup mikdorda tashqariga ajratiladi.

O`pkaning pastki qismida yiringli jarayonlar joylashganda bemor korni bilan yoki yonboshlab yotganida drenajli funktsiya samarali utadi. Tana burilishi bilan boglik aktiv harakatlar yiringli kovaklar va bushliklarni bushatishini ko`chaytiradi.

Korreksiya (tuzatish) mashqlar qaddi-qomatning o`zgarishlarini kamaytiradi va tuzatadi. Tuzatish korreksiya gimnastikasining asosiy vazifasi zaiflangan, chuzilgan mushaklarni mustaxkamlash, tortilgan musqo`llarni bushashtirish, boshkacha aytganda, mushaklarning normal tonusini qayta tiklash (masalan, skolioz va umurtqa pog`onasining osteoxondroz kasalligida) asosiy maqsadlaridan biridir.

Mushaklarni bushashtirish mashqlari-bular umumiy va mahalliy ta`sir etishini amalga oshiradi.

Bular ongli ravishda har xil musqo`l guruxlarining tonusini pasaytiradilar. Bemorning oyoq-qo`llar va tana musqo`llarini bushashtirishda taranglangan mushaklarning birikish nuktalari bir-biriga yaqinlashtirilgan holat yaratilishi lozim.

Yelka va qo`llarning mushaklarini kuyidagi holda bushashtirish mumkin:

a) tik va o`tirgan holda oldinga yoki qo`l tomoniga biroz engashib qo`llarni silkitib qo`yish;

b) tik turgan va o`tirganda yon tomonga yozilgan qo`llarni erkin holda pastga tushirish;

v) qo`llarga suyanib (stolga qo`llarni kuygan holatda) tepaga ko`tarilgan yelka kamarini erkin holda pastga tushirish.

Chuzish, chuziltirish mashqlari yallig`lanish yoki shikastlanish tufayli mushaklar, bog`lamlar paylar burishib kolgan holatlarda bug`imlarning harakat imkoniyatini oshirishda qo`llaniladi.

Bu mashqlar nafaqat tayanch-harakat apparatlariga, shu bilan birga, ichki a`zolarga ham ta`sir etadi. Masalan, bular yordamida plevralar bir-biri bilan yopishib kolishining yoki korin bushligidagi asoratlarning oldini olish mumkin. To`qima va xujayralarning mayinligini oshiradi.

Muvozanat mashqlari harakatlarning koordinatsiyasini shakllantirishda, qaddi-qomatni yaxshilashda va ishdan chikkan funktsiyalarni tiklashda (MNS kasalliklarida, miyada kon aylanishi buzilganda) qo`llaniladi.

Ritmoplastik mashqlar kupincha kasalxonadan ketganda tayanch-harakat apparatining funktsiyasini tiklashda (bug`imlarning yallig`lanishida, shikastlanishida), shu bilan birga, nevrozlar va haddan tashqari charchash holatlarda tiklanish davrida qo`llaniladi. Mashqlar musika jurligida belgilangan ritmda bemorlarning funktsional holatini va markaziy nerv tizimi faoliyatining turiga qarab o`tkaziladi.

Impulslarni yuborish mashqlari, asosan, aktiv mashqlarni bajarish imkoniyati bulmagan yoki sustlashgan holatlarda (shamollangan, chalashamollangan va gipsda yotgan holatlarda) qo`llaniladi. Bunday mashqlarni bemor vaziyatini uzgarmasdan yotgan holatda fikr orqali impulslarni ayrim mushaklarni qisqarishiga yuboradi. Bunday mashqlar ideomotor-xayolan bajarilishni tasavvur etish mashqlar deb nomlangan.

Masalan, son va tizza bug`imi gipslashgan holda, bemor tizza kopkokchasini kuchlantirib sonni turt boshli musqo`lni aktiv ravishda kiskartiradi.

Bu mashqlar natijasida mushaklarni kon bilan ta`minlanishi, modda almashinuvi yaxshilanishi va atrofik oldini olishga imkoniyat tugdiriladi.

Amaliy sport mashqlari organizmning funktsiyalari va ayrim sistemalarining tulik tiklanishiga, bu bilan bemorlarning kat`iyatini va uz kuchiga ishonchni oshiradi.

Bu gurux mashqlariga yurish, yugurish, so`zish, irgitish, sakrash, emaklash, yuqori tirmashib chikish, og`irliklarni ko`tarish, eshkak xaydash va butun maishiy sharoit harakatlari (narsalarni ushlash va bir joydan ikkinchi joyga qo`yish, tugmalarni tug nab olmok, bet-qo`lini yuvmoq) kiradi.

Davolash jismoniy tarbiya amaliyotida yurish keng qo`llaniladi. Yurishlar tayanch qobiliyat va yurishning (kadam tashlashni) steriotipini tiklaydi, bug`imlarning harakatlanishini yaxshilaydi va oyoqlar musqo`llarini mustahkamlaydi, markaziy nerv tizimi shikastlangan bemorlar yurishining turgunlik uzgarilishida kompensatsiyani shakllantiradi, vegetativ funktsiyalarini (kon tomir, nafas va modda almashish) faollashtiradi, har xil jismoniy yuklanishlarga adaptatsiyani (kunikmani) qayta tiklaydi va x.k.

Davolash yurishni yuklanish kuchi kuyidagi kursatkichlar asosida masofaning uzunligi, yurishning tezligi, kadam bosishning uzunligi va yerning relefiga qarab aniqlanadi. Bunday yurish davolash jismoniy tarbiyaning mustaqil shakli sifatida qo`llaniladi.

Yuqori yunalgan shaklda piyoda yurish (terenkur)-maxsus marshrutlar bo`yicha tepalikka chikish va pastlikka tushib davolash yurishdir. Yurak xastaligida, nafas solish tizimi kasalligida, modda almashinuvi buzilishida, tayanch-harakat apparatining kasallanishida, nerv tizimi shikastga chalinganda mashg`ulotning bu turi keng qo`llaniladi.

Davolash yurishning kuchi masofaning uzunligiga, utish vaktiga kayrilish burchagiga asoslanib belgilanadi. Yuqorida kursatilgan faktorlar asosida kichik, o`rta va katta marshrutlar ajratiladi.

Masofaning uzunligi (m) va ko`tarilish joyining tikligi (o) asosida terenkur marshrutlari kuyidagi guruxlarga bulinadi:

№1-1500 m, 2-50; №2-1000 m, 5-10; №3-2000, 10-15; №4-3000-5000 m, 15-20.
Terrenkurni yengil turidan boshlash lozim.

Davolash jismoniy tarbiyada yugurish, asosan, jismonan chinikkan bemorlarda shaxsiylashtirilgan yuklanishlar asosida qat'iy tibbiy nazorat ostida qo'llaniladi. Yugurish tana musqo'llarini bir maromda rivojlantiradi, yurak-tomir va nafas olish tizimlarini chiniktiradi, modda almashinuv jarayonlarini ko'chaytiradi, chukur va ritmik ravishda nafas olishni rivojlantiradi.

Uyinlar. Davolash jismoniy tarbiyada uyinlar 4 guruxga bulinadi:

1. Bir joyda turgan.
2. Kamharakatli.
3. Harakatli.
4. Sport uyinlari.

Uyinlar tanlangan ta'siri bilan birga bemorlarning harakat faoliyatini va xush kayfiyatini ham oshiradi.

Davolash jismoniy tarbiyaning usullari va shakllari. DAVOLASH JISMONIY TARBIYA shakllari quyidagilar:

- a) ertalabki gigienik gimnastika;
- b) DG mashg'uloti;
- v) terrenkur (yuqori yunalgan yulakda piyoda yurib davolanish);
- g) sayr kilish, ekskursiyalar va yaqin turizm;
- d) amaliy sport mashqlari va uyinlar.

Ertalabki gigienik gimnastika. Gimnastika jarayonida barcha a'zo va sistemalarning faoliyati ko'chayadi, odam organizmining xayotiy aktivlik darajasi oshadi. Mashqlarni tanlashda bemorlarning yoshi, kasallikning xususiyati, funktsional o'zgarishlar darajasi va jismonan chinikkanligi inobatga olinadi.

1.3. Davolash gimnastikasi mashg'uloti va rejim turlari

Davolash gimnastika mashg'uloti-DAVOLASH JISMONIY TARBIYAning asosiy shakli deb xisoblanadi. Har bir mashg'ulot uchta kirish, asosiy va yakunlovchi kismdan iborat.

Kirish qismi bemor organizmini asta-sekin kuchlantiruvchi mashqlarga tayyorlashdir. Kichik va o`rta mushaklarning harakatlantirilishi va nafas olish mashqlar qo`llaniladi.

Asosiy kism davomida jismoniy mashqlarni chiniktirish (umumiy va xususiy) ta`siri amalga oshiriladi.

Yakunlovchi davrida organizmni tiklash funksiyasini amalga oshirilishda nafas olish mashqlari va kichik, o`rta musqo`llarni, bug`imlarni harakatlantiruvchi mashqlar qo`llaniladi.

Dastlabki vaziyatlar. Davolash jismoniy tarbiyada uchta asosiy dastlabki vaziyatlar qo`llaniladi.

Yotish orqa bilan, korin bilan, yonboshlab, o`tirish, yotgan joyda, stulda (urinlikda), kushetkada va tik turish, tizza va kaftlarga tayanib, qo`ltiktayokka, manejga, stul suyanchigiga suyanib turgan holda.

Harakat rejimlari. *Davolash harakat rejimlari* deb bemorning muvaffaqiyatli davolanishi, har xil noyob (noqo`lay) ta`sirotlarga organizmning turgunligini oshirishga karatilgan barcha chora-tadbirlarga aytiladi.

Davolash rejimi kun tartibi bemorning umumiy harakat aktivligi, boshkacha aytganda, harakat rejimi bilan ifodalanadi.

Davolash muassasalarida (kasalxona, klinika, gospital, rehabilitatsiya bulimi yoki dispanser va x.k.) kuyidagi: jiddiy yotish, yengillashtirilgan yotish, yarim aralash yotish, kisman yurib kisman yotish, erkin harakat rejimlari qo`llaniladi.

Jiddiy kimirlamasdan yotish rejimi-bemorning tulik tinch holatini ta`minlashga karatilgan, mustaqil agdarilishi, qo`l-oyoqlarni harakatlantirishi man etiladi, ovkatlanishi va xojatini chikarishda tibbiyot xodimlarining yordamida amalga oshiriladi. Bemorning axvoliga qarab krovatda aktiv burilishlari va kun davomida 2-3 marta (5-12 dakikali) joyda o`tirish va uz-uziga xizmat kilishi urgatiladi.

Yengillashtirilgan rejimi-bunda yotgan joyda o'tirishga, burilishga, qo'l-oyoqlarini harakatlantirishga, mustaqil ovkatlanishga ruxsat beriladi, xojatlar tibbiyot xodimlari yordamida amalga oshiriladi.

Yarim aralash yotish rejimi-bunda bemor kunning yarmini yotgan holda, ikkinchi yarmini o'tirgan (50%), palatada yurish, muolajalarni kabul qilishga va xojatxonaga borish kabi harakatlarni bajaradi.

Erkin rejimi-bunda bemor kun buyi o'tiradi, tik turadi va yuradi (palatada, zinapoyalarda, xovlida). Dinamik va statik mashqlar, asbob-uskunalar yordamida va trenajyorlarda qo'llaniladi.

Sanatoriyalar, dam olish uylari va profilaktoriyalarda kuyidagi harakat rejimlari qo'llaniladi; avaylovchi-№1; avaylov-chiniktiruvchi (tetiklantiruvchi)-№2; jismonan chiniktiruvchi-№3.

Avaylovchi (avaylash) rejim (№1). Statsionar erkin rejimida qo'llaniladigan mashqlar qo'llaniladi. Davolash yurish, sayr qilish, terrenkur qo'llaniladi. DAVOLASH JISMONIY TARBIYada qo'llaniladigan shakllarning ta'siroti jiddiy nazorat ostida bo'lishi lozim.

Avaylov-chiniktiruvchi (tetiklantiruvchi) rejim (№2). Ekskursiyalarda qatnashish, uyinlarda (harakatli, sport uyinlarining elementlarini qo'llash), sanatoriya atroflarida sayr qilish qo'llaniladi.

Jismonan chiniktiruvchi rejim (№3). Uzoq davomli sayr (yaqin turizm) o'tkaziladigan barcha tadbirlarda qatnashish.

Kardiologik sanatoriyalarda harakat rejimi ertalabki gigienik gimnastika, davolash gimnastikasi, chegaralangan yurish, yer yuzining tuzilishi, past-balandligi imkoniyatiga qarab terrenkur, jismoniy mashqlarni suvda bajarish va boshkalarni uz ichiga oladi.

Sanatoriya yaqinida joylashgan soylar, qo'llar, dengizlar bo'lganda chumilish, so'zlash, eshkak xaydash va suv trenajyorlarida mashqlar qo'llaniladi. Sport uyinlari-voleybol, tennis, badminton keng qo'llamda qo'llaniladi.

Sanatoriyaga kelishi bilanok bemorga yuqorida kursatilgan rejim turlaridan biri tavsiya etiladi. Bemor moslashish qobiliyati asosida №1, №2 rejimidan №3 rejimiga

utkazilishi mumkin. Bunda DAVOLASH JISMONIY TARBIYAning yangi uslublari, sayr kilish marshrutlari uzaytirilib va mukammallashtirilgan tarzda qo`llaniladi.

Bemorning davolanish davrida davolash massajining hamma turlari: klassik, noan`aviy, suv osti massaji, vakuumli, vibratsion massaj keng qo`llaniladi.

Davolash jismoniy tarbiyada qo`llaniladigan jismoniy mashqlarning harakteristikasi. Bemorlarni kompleks davolashda jismoniy mashqlarning metodikasi va qo`llash davrlari, Davolash jismoniy tarbiyaning vositalari, jismoniy mashqlarning harakteristika va klassifikatsiyasi; gimnastik mashqlar, sport-ommaviy mashqlar uyinlar, turizm. Bemorlarni kompleks davolashda statsionar-poliklinika va sanatoriya sharoitida mashqlarni tanlash, ajratish.

Davolash jismoniy tarbiya metodlari: umumpedagogik, mutlok reglamentlangan mashqlar, uyinlar sifatida mashqlar.

Jismoniy mashqlarni davolashda qo`llanishining metodikasi. Jismoniy mashqlarning dozirovkasi. Jismoniy mashqlar qo`llanishining davrlari. Harakat rejimi-davolash rejimining tarkibidagi qismidir. Sanatoriya va statsionarda harakat rejimlarining kiska harakteristika.

Bemorni kompleks davolashda davolash jismoniy tarbiya samaradorligini baxolash metodlari.

Davolash jismoniy tarbiya mashqlari samaradorligini xisoblash. Bemorning funktsional holatini baxolash metodlari: antrometriya, nafas, markaziy, yurak-tomir tizimlami, tayanch-harakat apparatining holatini baxolash. Davolash jismoniy tarbiya samaradorligini baxolash metodlari.

1.4 Davolash jismoniy tarbiya shakllari.

DG mashg`ulotlarida umumrivojlantiruvchi va maxsus mashqlar qo`llaniladi.

Skoliozning birinchi darajasida jismoniy tarbiyaning umumrivojlanishi maksadida mashqlarning kup turlari qo`llanilishi mumkin (so`zish, brass, krol, voleybol, tennis, basketbol). Organizmning chinikishiga katta ahamiyat beriladi.

Nafas olish tizimini chiniktirish maksadida dinamik va statik nafas mashqlari qo`llaniladi. Barcha mashqlar chalkancha yotgan holatlarda bajariladi.

Skoliozning ikkinchi darajasida umumrivojlanish mashqlari bilan birgalikda uzuzidan korrektsiyalash, assimmetrik korrektsiyalash mashqlari va detorsion mashqlar (tavsiya etilganda) qo'llaniladi. Nafas mashqlarining qo'llanilishi katta ahamiyatga ega.

Skoliozning progressiv rivojlanish turlarida konservativ davolanish maxsuslashtirilgan statsionarlarda, maktab-internatlarda o'tkaziladi. Bunday maktab-internatlarda davolash gimnastika kun tartibida asosiy urin egallaydi: ertalabki gimnastika korrektsiyaga karatilgan, har bir darsda fizqo'lttanaffuslar, davolash gimnastika darslarida (har kuni 45 dan) davolash, so'zish, sport uyinlarining elementlari va jismoniy tarbiya darsida umumrivojlantiruvchi mashqlar qo'llaniladi. Bolalarning butun harakat rejimi maksadga muvofik korrektsiya (tuzatish) harakteriga egadir. Uzoq davomli skoliozning progressiv shaklida jarroxlik davolash usuli tavsiya etiladi. Bundan keyin uzoq davomli qayta tiklash davolash davrida DG yanada qo'llaniladi.

Skolioz kasalligining rivojlanishida quyidagi davrlar ajratiladi;

1. Torsiya (umurtqalarning burilishi).
2. Yon tomonga kiyshayish.
3. Ko'krak kafasi shaklining o'zgarishi (deformatsiya).
4. Kifoz belgilarining borligi (ko'rinishi).
5. Umurtqa pog'onasining bel qismida bel lordozining ko'chayishi.
6. Uspirin ostexondrozi.
7. Tosning ikkilamchi o'zgarishi.
8. Mushaklarning bir tomonlama kontrakturasi (tortilib kolishi).
9. Yurak va tomirlarning joyidan siljishi.
10. Orqa miya va nerv ildizlari vaziyatlarining o'zgarishi.

Yassi tovonlik

Yassi tovonlik oyoq kafti ichki gumbazlarining pasayishi bilan harakterlanadi. Kuchli mushaklar va bog'lamlar tizimi oyoq panjasining gumbazlari shakllarining va ular funktsiyalarining saklanishini ta'minlaydi. Normada oyoq panjasining uzun gumbazini (tovondan panjalar tomonga yunalgan bir necha suyaklardan iborat) ichki yuzasining balandligi 5-7 sm ga tent bo'ladi, toshqi yuzasining balandligi 2 sm atrofida bo'ladi. Bolalar panjasining tuzilishi uziga xos xususiyatlarga egadir. Mushak va bog'lamlar

elastikligining kattaligi tufayli bola panjalari statik yuklanishlarga (sakrashlar), baland snaryadlardan sakrab tushishga kam moslanganligi tufayli tez charchaydi (tolikadi) va o'zgarishlarga chalinadi. Shuning uchun erta boshlangan sport mutaxassisligi natijasida katta qo'lamli va shiddatli sport mashg'ulotlari, oyoq panjalarining ortik yuklanishlari yassi oyoq tovonlikning rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Adekvatli (moslangan) yuklanishda oyoqlarning gumbazi biroz yassilanadi, mashq tugashi bilanok mushaklarning aktiv kiskarilishi yordamida darxol avvalgi holatiga qaytadi. Uzoq davomli va haddan tashqari kuchli yuklanishlar mushaklarning tolikishiga va oyoq panjalari gumbazining turgun yassilanishiga (pasayishiga) olib keladi. 4-5 yoshga kirgan bolalarda uchraydigan yassi tovonlik, asosan, oyoq panjalarining rivojlanishi xali tugamaganligi natijasida yassi tovonlikda davolash choralari qo'llanilmaydi. Shu bilan birgalikda, bunday bolalarni kuz ostida tutib, 3-4 yoshdan boshlab boglov-mushak apparati albatta mustaxkamlanishi kerak. Oyoq panjasi uzun gumbazining pasayishi uzun yassi tovonlikka, kundalangi esa kundalang yassi tovonlikka olib keladi. Kupincha ikkala shakli ham birgalikda rivojlanadi.

Yassi tovonli holatlarning rivojlanishida oyoq panjasini boglov-mushak apparatining salbiyligi katta rol uynaydi. Bundan tashqari, uzoq davomli tik turish holatlar, tor oyoq kiyimlarni, tagi kalin va baland poshna kiyimlarni kiyish ham yassi tovonlik holatlar rivojlanishidagi sabablardan bo'lishi mumkin.

Uzun yassi tovonlikda og'riqlar va oyoq panjasining shakli o'zgarishi harakterlidir. Yassi tovonlik 3 darajaga bulinadi:

Birinchisida kuzga kurinar-kurinmas o'zgarishlar paydo bo'ladi, oyoqlarning tolikishi (asosan, jismoniy mashqlardan keyin), oyoq panjalarining ezib bosilishida og'riq paydo bo'ladi. kadam tashlashning nafisligi kamayadi. Kechga tomon panja yuzasida shishlar paydo bo'ladi.

Ikkinchisida oyoq panjalarida, tupiklar soxasida, boldirlarda muntazamli kuchli og'riqlar harakterlidir. kadam tashlashning nafisligi va mayinligi kuzga kurinarli uzgaradi. Oyoq panjasining uzun gumbazi yuklanmagan holatda ham ancha past bo'ladi.

Uchinchisida oyoqlar panjalarida, boldirlarda, tizza bug'imlarida, kupincha belda muntazamli og'riqlar va bosh ogrigi ham paydo bo'ladi. Toshqi kuzatishda oyoq

panjasining uzun gumbazi aniqlanmaydi. Bug`imning shakli va butun panjaning shakli haddan tashqari uzgaradi, panja va bug`imlar shishadi, boldir-panja bug`imining harakati keskin cheklanadi. Bunday yassi tovonlikda yurish kiyinlashadi, sport ish qobiliyati va mexnat ish qobiliyati keskin pasayadi, bemorlar maxsus poyafzal kiyishga majbur bo`ladilar.

Kundalang yassi tovonlik-oyoq panjasi kundalang gumbazining yassilanishi yoki butunlay yo`qolishi bilan harakterlanadi. Asosan, oyoq barmoklarining shakli uzgaradi. Asosiy belgilari-oyoq panjasining old qismi yoyilgan, oyoqning osti kavarishi, barmoklar yozuvchi paylarining tarangligidir. Vakt utishi bilan oyoq panjasining shakli haddan tashqari uzgaradi, bosh barmok tashqariga buriladi, barmoklar tumtoklanib bolgacha shaklga ega bo`ladilar.

Yassi tovonlik holatlarni davolashdan ko`krak oldini olish osonrokdir. Shuning uchun yassi tovonlik o`zgarishlarini erta bolalik davridan oldini olish va davolash katta ahamiyatga egadir. Bunday choralar jismoniy tarbiya mashg`ulotlarining tugri toshqil kilinishi, haddan tashqari oyoqlarga tana kuchini tushirmasdan va bolaning tugri qaddi-qomatining shaklantirilishiga katta ahamiyat berilishi kerak. Bolalar yurganda oyoqlarning orasini ochib, kermasdan yurishlari kerak. Bunday holatlarda oyoq panjasining ichki yuzasi va uni ushlab turuvchi bog`lamlari zurikmaydalar. Yasli, bogchalar, maktablarda jismoniy tarbiya mashg`ulotlarida boldir va oyoq panjalarining mushaklari va bog`lam apparatini mustaxkamlovchi, maxsus mashqlar-brevnoda (xodada) yalang oyoq yon bilan uzunasiga yurish, brevnoni yoki kanatni ikki oyoq panjasining ichki tomoni bilan maxkam kisib olib yuqori tirmashib chikish mashqlari kiritilishi kerak.

Jismoniy mashqlar yotgan, o`tirgan, tik turgan va yurishda bajariladi. Bunda boldir va oyoq panjalarining ayrim mushaklariga beriladigan mashqlarni tartibga solish imkoniyati tugdirilada. Oldin yotgan va o`tirgan holatlarda mashqlar bajariladi. Mushaklarni kiskartirish va bushashtirish mashqlari bir-biri bilan aralash shaklda bajariladi. Keyinchalik statik mashqlarni kiritish tavsiya etiladi.

2 BOB. JAROHATLANISH TUG`RISIDA TUSHUNCHA, SINISHNING TURLARI VA FUNKSIONAL DAVOLASH DAVRLARI.

2.1 Jarohatlanish tug`risida tushuncha.

«Travma» grekcha soʻz boʻlib-bu toʻqimalar va tana organlarining anatomik yaxshilanishi, toshqi muxit faktorlarining organizmga ogʻriqlar taʼsiri ostida alohida funktsiyalarning turishi va buzilishining mahalliy va umumiy reaksiyasidir.

Umumiy kasallanishlar ichida (statistika boʻyicha) jarohatlanish (travma) erkaklarda ayollarga nisbatan ikki barobar koʻproq.

Jarohatlanish koʻproq erkaklarda (15-30 yoshgacha) uchraydi.

Jarohatlanish kelib chikishi boʻyicha quyidagicha boʻladi:

- ishlab chikarish, qishloq xoʻjaligi jarohati;
- ijtimoiy jarohat;
- koʻcha jarohati;
- harbiy jarohat;
- sport jarohati;
- bolalar jarohati.

Jarohatlanish har xil faktorlar: mexanik, ximik, termik, elektrik, radiatsion, nurlanish, atmosfera bosimining oʻzgarishi, undan tashqari psixik jarohatlanish taʼsirida sodir boʻladi.

Jarohatlanish va shikastlanish terminlari jarohatlovchi segmentlarni lokal, anatomik va funktsion taʼsirida qoʻllanilishida aniqlanadi (elka oldi suyaklarining sinishi, chap son yumshoq toʻqimalarining yopiq shikastlanishi, chap son suyagining sinishi va x.k.)

"Jarohatlanish kasalligi"-koʻproq organizmning mahalliy va umumiy reaksiyasining shikastlanishga boʻlgan moyilligini aniqlanishidir.

2.2 Shikastlanish harakterlari va ularga tasnif.

Shikastlanish harakteri boʻyicha quyidagilarga bulinadi:

- | | |
|--------------------------------|-------|
| 1. Lat yeyish va choʻzilishlar | 45,5% |
| 2. Yara va ssadini | 39,6% |
| 3. Suyak sinishlari | 8,5% |
| 4. Qoʻyishlar | 5,5% |

5. Boshka shikastlar 3,6%

Joylashishi bo'yicha:

1. qo'l panjalari 34,0%

2. Tovon suyaklari 28,5%

3. Yelka oldi suyaklari 11,6%

4. Boldir suyaklari 9,8%

5. qovurg'a, ko'krak 5,8%

6. Umrov suyagi 2,5%

7. Yelka suyagi 2,2%

8. Tizza kuzi (kopkogi) 1,3%

9. Yuz 1,1%

10. Bosh suyagi 0,9%

11. Tos suyaklari 0,6%

12. Umurtqa pog'onasi 0,5%

13. Ko'krakk suyaklari 0,3%

O'zbekistonda jarohatlanishlar umuman viloyatlar, shaharlar, sanoat hamda qishloq xo'jaligi tumanlari va boshkalarda xisobga olinadi. Shuning uzi jarohatlanishning sababi uni oldini olishda va salmokli davolash uslublarini qo'llashga yordam beradi.

Respublika aholisi umumiy kasalliklarining 13,3%ini jarohatlanish (travmatizm) toshqil etadi, shundan taxminan 1,2%i uladi.

Og'irligi bo'yicha jarohatlanishlar:

1. Yengil (ishlash qobiliyatini yo'qotmasdan).

2. O'rta (vaktinchalik ish qobiliyatini yo'qotish).

3. Og'ir (bemor uzok statsionar davolanishda bo'lib, ish QOBILIYATini yo'qotadi).

Harakteri bo'yicha jarohatlanishlar yopiq va ochiq bo'ladi.

Yopiq jarohatlanishda terining butunligi saklanadi- yumshoq to'qimalarning shikastlanishi (lat yeyish va buzilish), ichki organlar (buyrak, jigar, ichaklar), chikishlar, bog'lamlar va mushaklarning cho'zilishi, buzilishi, suyaklarning shikastlanishi-sinishlar, yeyilish, miya chayqalishi.

Ochiq jarohatlanishda terining butunligi buziladi-aralash (kirkilgan, kokilgan, kiruvchi, tashlangan, otilgan va x.k.) va ochiq sinishlar.

Jarohatlanish kasalligi shikastlangandan so`ng rivojlanadi, to`qimalar va alohida tayanch-harakat segmentlarining butunligi buziladi va bunga mahalliy reaksiyalar beriladi (trombalar hosil bo`lishi, kon okish, yallig`lanish) va organizmning umumiy reaksiyasi.

Jarohatlanishning umumiy ko`rinishlariga kollaps, xushdan ketish, travmali shoklar kiradi.

Bulardan eng xavfligi travma shoki (jarohatlanish shoki).

Bu ham bulsa katta og`riqlar orqali sodir bo`lib, organizmning asosiy xayot faoliyatini buzadi.

Shok-organizmni kuchli og`riqlardan ta`sirlanishiga nerv-reflektor reaksiyasi va jarohatlanganlik xayotini xavf ostiga soladi.

Jarohatlanishning shoki 2 fazada (tuziklanadi) bushlik, okarib ketish, A/B pasayib ketish, yuzaki nafas olish, sovuk ter, paylar refleksining pasayishi, maskali yuz, atrofdagilarga befarklik.

Shokning rivojlanishi nafaqat nafas olish, yurak kon-tomir tizimi, modda almashishi, balki oshkozon-ichak traktining funktsiyasi buzilishiga (ichaklarning qisqarishiga), Jigane funktsiyasi, chikarish organlari, siydik chikishining kamayishi, tuxtashi va x.k.larga ta`sir etadi.

Shokda nerv tizimining sillasi kuriydi, bu uz navbatida bosh va orqa miya markazlarini falajlikka olib kelishi mumkin. Shok bilan muvaffakiyatsiz ko`kraksh natijasida tez yurak faoliyatining susayishi, nafasning tuxtashi ulish bilan tugaydi. Ilk va birlamchi shok jarohatdan so`ng paydo bo`ladi va kechki shok jarohatdan bir necha soat keyin rivojlanadi.

Jarohatlanish kasalligining o`tkir namoyon bo`lishi-bu kon okishidan so`ng o`tkir kam konlikdir. Jarohatlanish kasalligining kechishi uning harakteriga va shifokor oldi yordamining uz vaktida utkazilishiga boglik. Vaktlik boshlangan tadbirlar-og`riqni koldirish, shokka karshi suyukliklarni avaylab, transportirovka kilish-shok rivojlanishining oldini oladi. Shok xavfini pasaytirishda jarroxlik yordami-yarani ishlash,

sinish-chikishlarni tugrilash, kon okishini boylash va boshkalar. kon okishini tuxtatish uchun kon qo'yish, shokka karshi konning urnini bosish uchun suyakliklar tadbik etiladi.

Sinishlar joyidan siljishi singan suyakning siljishi yoki siljimasligi bilan fark kiladi. Sinishning kaday tusda bo'lishiga karamasdan davolashning 3 nuktai nazari asos bo'ladi: singan suyaklarni bir-biriga tugrilash, ularni tugri holatda bitib ketishigacha ushlab turish va funktsiyasini tiklash. Singan suyaklarni bir-biriga tugrilash ochiq uslub bilan, ya'ni ope-ratsiya yuli bilan yoki yopiq uslub bilan, ya'ni skelet yoki yopishkok plastir bilan chuzish va qo'l bilan tugrilashdir. Yopiq uslubda singan suyaklarga shina, gipsdan taxtach, Illizarov apparati va boshkalar, ochiq uslubda metall sterjenlar, mixlar (suyak ichiga kiritish), shuruplar, vintlar, boltlar, suyak shrifti va transplantatlardan foydalaniladi. Sinishlar birlamchi birikishlar bilan (suyaklarni yaxshi takkoslash orqali kichkinagina kadak hosil bo'ladi) ikkilamchi bitib keng suyak kadaki sodir bo'ladi.

Jarohatlanish shikastlanishning tez-tez bo'lib turadigan og'riqlari:

Kontraktura-bug'indagi harakatning kamayishi bug'in ichi va bug'in tashqarisidagi yumshoq to'qimalarning qisqarishi xisobiga sodir bo'ladi.

Bug'indagi kiyin harakatlik-keskin harakatning pasayishi, ya'ni harakat 35° gacha sodir bo'ladi.

Ankiloz-bug'indagi tulik egish va yozishning bulmasligi, suyaklarning bitib ketishi rentgen orqali tasdiklanadi.

